



MURAKKAB ERGASH GAPLARNING STRUKTURAL KO'RINISHI

Bakirova Elnora Anvarovna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(Farg'ona tumani 1-umuta'lim maktabi o'qituvchisi)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15798910>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEY WORDS


murakkab ergash gap, teng munosabatli qo'shma gap, tobe munosabatli qo'shma gap, aralash munosabatli qo'shma gaplar

ABSTRACT

Maqola o'zbek tilidagi tobelik munosabatini ifodalovchi murakkab ergash gaplarning strukturasi tadqiq qilish, ularni lisoniy dalillar bilan izohlashga bag'ishlangan

Murakkab ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi tobelik munosabatini ifodalovchi murakkab ergash gaplar tuzilishiga ko'ra xilma-xil tabiatli bo'ladi. Struktur belgi asosida farqlanishiga ko'ra ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:


1. Bosh gapning mazmunini izohlashga xizmat qiluvchi murakkab ergash gap ikkita predikativ birlikdan tashkil topadi: *Baribir o'zgarishni his etmaydi, chunki muammolar qaytib kelaveradi va ulardan qochib qutulish - imkonsiz.* ("Psixolog" gazetasidan)



Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m =$ bog'langan qo'shma gap;

b) $1 WP_m + [2 WP_m + 3 WP_m] =$ murakkab ergash gapli qo'shma gap.

2. Hokim qismning mazmunini izohlovchi murakkab ergash gap ikkidan ortiq predikativ birlikdan iborat bo'ladi: *Shuni bilib qo'yki, bu bola hozir sher bo'lib turibdi: oldidan borsang, oldingdan otadi, yonboshidan borsang, yonboshingdan otadi.* (Said Ahmad "Ufq" / "Qirq besh kun")



Yuqorida keltirilgan murakkab ergash gapli qo'shma gapning tahlilida shuni ko'rishimiz mumkinki, mazkur murakkab sintaktik qurilma oltita predikativ birlikning grammatik bog'lanishidan tashkil topgan.

Izoh:

a) $5 WP_m + 6 WP_m =$ oddiy ergash gapli qo'shma gap;

b) $3 WP_m + 4 WP_m =$ oddiy ergash gapli qo'shma gap;

d) $(3 WP_m + 4 WP_m) + (5 WP_m + 6 WP_m) =$ bog'lovchisiz qo'shma gap;


e) $2 WP_m + [(3 WP_m + 4 WP_m) + (5 WP_m + 6 WP_m)] =$ bog'lovchisiz qo'shma gap;

f) $1 WP_m + (2 WP_m + [(3 WP_m + 4 WP_m) + (5 WP_m + 6 WP_m)]) =$ murakkab ergash gapli qo'shma gap.

Murakkab ergash gaplarning tarkibiy qismlari bog'lanish belgisiga ko'ra teng munosabatli, tobe munosabatli yoki aralash munosabatli qo'shma gaplar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

I. Teng munosabatli qo'shma gaplar bilan ifodalangan murakkab ergash gaplar o'rganilganda quyidagilar aniqlandi:


1. Bog'lovchisiz qo'shma gap murakkab ergash gap vazifasida kelishi mumkin: "Vaqtning ketdi - naqding ketdi", - deb bekorga aytishmagan (Hikmat).



Izoh: a) $1 WP_m + 2 WP_m =$ bog'lovchisiz qo'shma gap;

b) $[1 WP_m + 2 WP_m] + 3 WP_m =$ murakkab to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

2. Bog'langan qo'shma gap murakkab ergash gap vazifasida: *Kishilik mehnati va ijodiyoti tarixi bitta odam tarixiga nisbatan xiyla qiziqroq va ahamiyatliroqdir, chunki odam loaqqal yuz yil ham umr ko'rmay o'lib ketadi, uning ishi esa asrlarda yashaydi.* (Gazetadan)




Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m =$ bog'langan qo'shma gap;

b) $1 WP_m + [2 WP_m + 3 WP_m] =$ murakkab sabab ergash gapli qo'shma gap.

II. Tobe munosabatli qo'shma gaplar bilan ifodalangan murakkab ergash gaplar bosh gap bilan o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar va shu bog'lovchilar vazifasidagi vositalar bilan birikadi:

1. Oddiy ergash gapli qo'shma gaplar murakkab ergash gap vazifasida:


A) *Yana bir maqol bor^{ki}, shamol bo'lmasa, terakning uchi qimirlamaydi* (Hamid G'ulom).



Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m =$ shart ergash gapli qo'shma gap;

b) $1 WP_m + [2 WP_m + 3 WP_m] =$ murakkab aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.


B) *Shunday deb ta'riflashga majbur edilar, chunki qaytib borsalar, qayerga ko'mganlarini ko'mganlarning o'zlari ham topa olmasdilar.* (Ahmad Lutfuy Qozonchi "Saodat asri")



Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m =$ payt ergash gapli qo'shma gap;

b) $1 WP_m + [2 WP_m + 3 WP_m] =$ murakkab sabab ergash gapli qo'shma gap.


D) *Hodisalar silsilasi shundaykim, o'z taqdirim ustida o'ylamay ilojim yo'qdur, zero el-ulus taqdiri sohibi toj taqdiriga bog'liqdur.* (Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasini")



Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m =$ sabab ergash gapli qo'shma gap;

b) $1 WP_m + [2 WP_m + 3 WP_m] =$ murakkab kesim ergash gapli qo'shma gap.


E) *Yerdan olsang ham, sanab ol, deb shuni aytadi-da.* (So'zlashuv nutqidan)



Izoh: a) $1 WP_m + 2 WP_m =$ to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap;

b) $[1 WP_m + 2 WP_m] + 3 WP_m =$ murakkab to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.


F) *Bilasizmi, dada, borib-borib odamning axloq boyligi yetmay qolsa, men nuqul shuni o'ylaydigan bo'lib qoldim.* (Asqad Muxtor "Chinor")



Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m =$ to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

b) $1 WP_m + [2 WP_m + 3 WP_m] =$ murakkab to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

G) Agar shunday qilsam, avji kuchga to'lgan, ko'ziga dunyo jilva qilib turgan, g'oliblik nash'asini surayotgan bir navqironning boshini xam qilib qo'yardim, ana shuning uchun tushmadim. (Said Ahmad "Ufq" / "Qirq besh kun")




Izoh: a) $1 WP_m + 2 WP_m =$ shart ergash gapli qo'shma gap;

b) $[1 WP_m + 2 WP_m] + 3 WP_m =$ murakkab sabab ergash gapli qo'shma gap.

2. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar murakkab ergash gap vazifasida:

Bilamanki, agar jon-dilingdan yaxshi ko'rgan bir ishing bo'lmasa, o'zingdan, o'z hayotingdan kattaroq, sening quvonchlaringdan, g'am-kulfatlaringdan yuksakroq bir niyating bo'lmasa, yashashingdan ma'no yo'q. (Asqad Muxtor "Chinor")




Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m + 4 WP_m =$ bir necha ergash gapli qo'shma gap;

b) $1 WP_m + [2 WP_m + 3 WP_m + 4 WP_m] =$ murakkab to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

III. Aralash munosabatli qo'shma gaplar bilan ifodalangan murakkab ergash

gaplarning tarkibi ham teng munosabatli, ham tobe munosabatli qo'shma gaplarning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladi: *Yana bir sharti shuki, bir uydan otasini chaqirsa, bolasini ham chaqirsin yo u uydan chaqirilgan kishining yaqin qarindoshi bo'lsa, uni ham qo'shib chaqirilsin.* (Muhammad Sodiq Qoshg'ariy "Yaxshi kishilar odobi")



Izoh: a) $2 WP_m + 3 WP_m =$ shart ergash gapli qo'shma gap;

b) $4 WP_m + 5 WP_m =$ shart ergash gapli qo'shma gap;

v) $[2 WP_m + 3 WP_m] + [4 WP_m + 5 WP_m] =$ murakkab bog'langan qo'shma gap;

g) $1 WP_m + ([2 WP_m + 3 WP_m] + [4 WP_m + 5 WP_m])$ = murakkab kesim ergash gapli qo'shma gap.

Murakkab ergash gaplarning tasnifi masalalarini har jihatdan tadqiq qilish nazariy va amaliy tilshunoslik uchun muhimdir. Murakkab ergash gapli qo'shma gap qismlarini turli lingvistik yondashuvlar asosida o'rganish murakkab qo'shma gaplarga xos bo'lgan fikr ifodalash imkoniyatlarini to'la-to'kis aniqlab beradi hamda murakkab qo'shma gap sintaksisining takomillashuvi va rivoj topishiga xizmat qiladi.

